

Kombinatda manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiya holatlari, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganish maqsadida navbatdan tashqari o‘tkazilgan anonim so‘rovnoma Tahlili

“O‘zmetkombinat” AJ 2024-yil davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshiriladigan chora tadbiri Dasturi 5.5-bandini bajarilishini ta‘minlash maqsadida 2024-yil 12-noyabrdan 18-noyabrgacha Kombinat rasmiy telegram kanalida “Kombinatda manfaatlar to‘qnashuvi, korrupsiya holatlari, tendensiyalari va sabablari, korrupsiyaga qarshi ko‘rilgan choralar samaradorligi to‘g‘risida jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha 10 ta savoldan iborat anonim so‘rovnoma o‘tkazildi. O‘tkazilgan anonim so‘rovnomada o‘rtacha 380 nafar (anonim savolnomada umumiy qatnashganlar soni–3801 nafar) xodimlar va kanal kuzatuvchilari qatnashdilar va uning natijalariga ko‘ra:

“O‘zmetkombinat” AJ xodimi biznes hamkorlik davomida qancha miqdorgacha sovg‘a olishi mumkin, savoliga 8 %;

“O‘zmetkombinat” AJ xodimi paydo bo‘lgan manfaatlar to‘qnashuvi yoki yuzaga kelishi ehtimoli to‘g‘risida kimni xabardor qilishi shart, savoliga 40 %;

Qanday shaklda davlat xizmatchisiga manfaatlar to‘qnashuvi haqida yoki uning yuzaga kelishi ehtimoli to‘g‘risida xabar berishga majbur, savoliga 67 %;

Manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishda kimlar ishtirok etadi, savoliga 54 %;

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solishda qanday choralar ko‘rilishi lozim, savoliga 28%;

Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish deganda nima tushuniladi, savoliga 64 %;

Manfaatlar to‘qnashuvining salbiy oqibatlaridan birini keltiring, savoliga 29 %;

Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish deganda nimalar tushuniladi, savoliga 12 %;

Manfaatlar to‘qnashuvi holatlarini tartibga soluvchi Qonunni ko‘rsating, savoliga 57%;

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonun qachon qabul qilingan, savoliga 30% ovozi bilan - anonim savollarga to‘g‘ri javob bergan ishtirokchilar umumiy 40,7 % ni tashkil etgan.

Anonim so‘rovnoma natijasi Komplaens - xizmati tomonidan tahlil qilinib, kelgusida quyidagi yo‘nalishlardagi chora tadbirlarni 2024-yil 31-dekabrga qadar amalga oshirish belgilab olindi:

Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi, sovg‘alar berish va qabul qilish mavzularida ishlab chiqilgan targ‘ibot materiallari videoroliklarni Kombinatning You Tube ijtimoiy tarmog‘idagi rasmiy kanaliga joylashtirish va kuzatuvchilar e‘tiboriga havola qilish;

Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi Qonuni maqsadi va vazifalari haqida audio va videoroliklar yaratish va Kombinatning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy kanallarida kuzatuvchilar e‘tiboriga havola qilish;

Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi mavzusida Kombinat xodimlari o‘rtasida Davra suhbatlari o‘tkazish va Kombinat rasmiy veb saytiga joylashtirish;

Korrupsiya va manfaatlar to‘qnashuvi mavzusida Kombinat Yoshlar yetakchilari Kengashi bilan birgalikda davra suhbatlari va seminar tashkil etish;

Kombinat Boshqaruv Raisi Bosh direktorning “Metallurg Minbari” gazetasining 2024-yil 27-noyabr kunidagi 11–sonida nashr etilgan “Korrupsiyaning asosiy omili bu Manfaatlar to‘qnashuvidir” nomli murojaatlarini Kombinat xodimlari bilan keng muhokama qilish ishlarini tashkillashtirish.